

**“ABU ALI IBN SINO” ROMANIDA TABIB OBRAZI TAHLILI**

**Karimova Saxiba Baxodirovna,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

***Annotatsiya:** Maqolada Abu Ali ibn Sino haqidagi roman ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Tabib shaxsiyati ochib berilishiga, obraz tahliliga, bemor obraz tasviriga asosiy diqqat qaratilgan. Maqoladagi firklar ilmiy dalillangan. Adabiyotlardan o'rinli foydalanilgan.*

***Kalit so'zlar:** yozuvchi, asar, tabib obrazi, prototip, badiiy to'qima.*

***Аннотация:** В статье анализируется роман об Абу Али ибн Сине с научно-теоретической точки зрения. Основное внимание уделяется раскрытию личности врача, анализу образа, образа пациента. Факты в статье научно доказаны. Литература используется по назначению.*

***Ключевые слова:** писатель, произведение, образ врача, прототип, художественная композиция.*

***Annotation:** The article analyzes the novel about Abu Ali ibn Sina from a scientific and theoretical point of view. The main focus is on the disclosure of the doctor's personality, image analysis, and the image of the patient. The facts in the article are scientifically proven. Literature is used appropriately.*

***Key words:** writer, work, image of a doctor, prototype, artistic composition.*

Badiiy adabiyotda obraz yaratishda ba'zida ma'lum tarixiy shaxs prototip sifatida tanlanadi. Bunda asosan tarixiy shaxning o'zi yozgan kitoblari, qolaversa, zamondoshlari qoldirgan ma'lumotlarga tayaniladi. O'zbek adabiyotida ham bunday obrazlar bisyor. Xususan, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi obrazlar ana shunday tarixiy obrazlar sirasiga kiradi.

Yozuvchi Abdualol Rahimning “Abu Ali ibn Sino” romani ham ana shunday tarixiy shaxs prototip qilib olingan asarlar sirasiga kiradi. Asarda Ibn Sino obraziga urg'u berilgan. Ushbu asarda buyuk alloma, iqtidorli tabibning hayot yo'li haqida hikoya qilinadi. Asar juda qiziqarli, shu bilan birga juda ishonarli. Bunga sabab esa yozuvchi qo'llagan faktlarning haqiqatga mos kelishi. Asardagi har bir ma'lumotning asosi borligi uni yanada boyitgan. Bu haqida uning o'zi shunday deydi: “Ibn Sino yashagan davrni, Ibn Sino shaxsiyatini o'rganishga kirishdim. Bunda, birinchi galda, allomaning o'zi yozgan tarjimai holi asos bo'ldi. Uning “Tib qonunlari” asari, “Urjuza”lari va boshqa falsafiy asarlari, adabiy merosi, zamonamiz olimlarining ilmiy maqolalari bilan tanishdim”.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> А. Раҳим. Абу Али ибн Сино. – Тошкент: Камалак, 2019, 317-6.

## RAUF PARFI IJODINING MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI

Respublika ilmiy-nazariy anjumani

Asar qahramoni Abu Ali ibn Sino bo'lib, roman uning yoshlik davri bilan boshlanadi. Yosh Husaynning qanchalar aqlli ekani va undagi iqtidorni o'quvchi asar boshidanoq his qiladi. Ota undagi tabiblikka bo'lgan havasni bilgach, uni yaxshi ustoz tarbiyasiga beradi. Shu tariqa, buyuk tabiblikka ilk qadam qo'yiladi. "Abu Ali ibn Sino" romanida biz tabib obrazini aniq prototip asosida yaratilgan deyishimiz mumkin. "Prototip (yun. prototypon: protos – ilk, dastlabki, boshlang'ich; typos – nuqta, nishona, obraz) adabiyotshunoslikda badiiy obrazni yuzaga keltirishda negiz, asos, o'zak, bosh yo'nalish nuqta, poydevor sifatida xizmat qiluvchi real shaxs (hayotda bo'lgan tarixiy shaxs) ma'nosida qo'llaniladi. Bu usulda badiiy obraz yaratishning xarakterli jihati shundaki, bunda hayotda mavjud bo'lgan tarixiy shaxs badiiy obrazning asosida turadi. Yozuvchi hayotdagi favqulodda shaxslar – prototiplarga tayanib badiiy obraz yaratadi. Prototipli obraz yaratish usuli ham, xuddi jamlash yo'li bilan obraz yaratilayotganidek, hayot hodisalari tipiklashtirilib ko'rsatiladi, badiiy to'qimadan ma'lum me'yorda foydalaniladi. Ta'kidlash kerakki, badiiy obraz hayotiy material – prototip, yozuvchining ijodiy fantaziyasi – badiiy to'qima va olg'a suriladigan g'oya – estetik idealning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Prototip bilan obraz orasida yozuvchining o'zi turadi. Agar badiiy obrazni jonli organizm deb faraz qiladigan bo'lsak – prototip sgu organizmning skeleti, badiiy to'qima uning eti, estetik ideal esa qoni-joni. Tirik organizmning etini skeletidan ajratib bo'lmaganidek, badiiy obraz "organizmi"dagi prototipni badiiy to'qimadan, badiiy to'qimani estetik idealdan uzib olib bo'lmaydi"<sup>2</sup>.

Adib tabib obrazini yaratishda ham har tomonlama ehtiyot bo'ladi, dori nomlari-yu, muolaja tasvirlarini Ibn Sino yozgan kitoblardan oladi. Romanda Ibn Sinoning qanday qilib ustozni yonida emas vaqtida ilk bor bir bemorning hayotini saqlab qolgani tasviri hayajon bilan o'qiladi. "Razzoqjonning o'rnidan turishga holi kelmadi. Otasi ko'tarib olishga chog'landi. U Husaynga bir qarab oldi-da, o'g'lini bag'riga oldi. Husayn darvozani ochib ularni dolonga boshladi. Nima qilarini bilmayotgan Abdulloh ularga ergashdi. U o'g'lining qat'iyatidan hayratlandi. Shuning barobarida, xastaning taqdiriga javobgar bo'lib qolmog'idan hamon xavotirda. Axir u hali tabiblik bilan mustaqil shug'ullangan emas"<sup>3</sup>. Ibn Sino uyiga nogoh kelib qolgan bemordagi o'zgarishlarni aniqlaydi va uni darhol davolashga kirishadi.

“ – Zudlik bilan me'dani yuvmoq zarur! – dedi katta kosada suv olib kelgan Husayn. – Aks holda...

<sup>2</sup> Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

<sup>3</sup> А. Рахим. Абу Али ибн Сино. – Тошкент: Камалак, 2019, 47-б.

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

Otasi yalt etib Husaynga qaradi. Nigohida iltijo, shuning bilan birga, yosh tabibga ishonchsizlik aks etib turardi. Biroq ayni paytda uning talabiga bo'ysunmoqdan o'zga iloji ham yo'q.

– Aks holda, zahar tobora qonga so'riladi, – deb xulosa yasadi Husayn va xona burchagidagi mis tog'orachani olib keldi".<sup>4</sup>

Bundan ko'rinadiki, tabib yoki shifokor avvalo o'ziga ishonmog'i, qilayotgan ishini aniq bilishi lozim ekan. Shundagina unga hamma ishonadi. Asar qahramoni ham aynan shunday yo'l tutadi. Bu holat obrazni yanada reallashtiradi. Asarda Ibn Sino obrazi juda zehnli, fidoiy, insonparvar shaxs sifatida gavdalanadi. Tabiblarga xos tirishqoqlik, o'z ishiga mas'uliyat, inson hayotiga javobgarlik xususiyatlarini o'zida mujassam etgan ushbu qahramon asarda chinakam ma'noda obraz darajasiga chiqadi. Asarda Ibn Sinoning yoshlik damlari, uning ustozlari, ota-onasi bilan bo'lgan munosabati ham alohida tasvirlanadi. Shogirdidiga iqtidorni ko'rib, ustozlari uning yoshligidanoq komil inson bo'lib yetishishiga ishonishadi. Abu Ali ibn Sinoga ustoz Al-Qumriy barcha o'simliklarning xususiyatlarini o'rgatadi. Yosh tabib ham buni jon-dili bilan o'rganadi. Odamlar yosh tabibni "giyohlar bilan so'zlashadigan tabib" deb atashdi.

"Yozuvchi tarixiy yoki mashhur shaxs hayotini badiiyat vositalari bilan mustaqil, o'zicha tadqiq etgan, o'sha shaxs haqidagi o'zining original badiiy konsepsiyasini ilgari surolgan taqdiridagina asl muddaoga erisha oladi, tarixiy yoki mashhur shaxs obrazining salmog'i, ta'sirchanligi o'sha shaxsning hayotdagi o'rni, obro'-e'tibori bilan emas, hammadan burun yozuvchining dahosi, mahorati, g'oyaviy-badiiy konsepsiyasining orginalligi, haqqoniyligi, ko'lamdorligi bilan belgilanadi".<sup>5</sup>

Nisbatan tinchgina voqealar hukm suradigan asarlarga qaraganda, turli qarama-qarshiliklarga boy asarlarning o'quvchisi ko'p bo'ladi. Ana shunday asarlar kabi ushbu romanda ham konflikt mavjud. Saroy bosh tabibi G'ays ibn Vaqqos hech kim davolay olmayotgan ulug' amirni davolash uchun saroyga kelgan yosh tabib Ibn Sinoga hasad qila boshlaydi. Hatto uning joniga qasd qilishga ham urinadi. Ibn Vaqqosga yosh tabibning nihoyatda bilimdonligi, hukmdorni davolashga jur'at etgani sabab bo'ladi. Bir qarashda, Ibn Vaqqos obrazi ham tabib obrazi. Bu shuni ko'rsatadiki, qaysi kasbni egallamasin,

<sup>4</sup> А. Раҳим. Абу Али ибн Сино. – Тошкент: Камалак, 2019, 48-б.

<sup>5</sup> Норматов У. Қалб инқилоби. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986, 227-228-б.

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

yomonlarga xos qabih fe'l-atvor tabiblar orasida ham bo'lishi mumkin ekan. Kasbiga sadoqat esa faqatgina toza qalbli insonlarga xosdir.

Ushbu asarda shifokor, tabib obrazini tahlil qilar ekanmiz, adabiyotda tabib obrazi ham birmuncha murakkab xarakterga ega, o'ziga xos xususiyatlarga ega obraz ekaniga guvoh bo'lishimiz mumkin. Qaysi davrda yoki qaysi makonda bo'lishidan qat'iy nazar tabib obrazini biz xuddi shunday ko'rinishda topamiz. Murakkab vaziyatlar, voqealar girdobidagi shifokor obrazlariga doimo inson hayotiga oid muhim vazifa yuklanadi.

Asarning ushbu o'rnida ham yana bir fidokorlikka guvoh bo'lamiz: "Firdavsning yuzi og'riq azobidan tirishib ketgan, butun badani titroqda, xirillab yotibdi. Abu Ali uning oldiga cho'kklab o'tirib oldi. Darhol bilagiga ko'z tashladi. Ilonning tishi chuqur kirgan, qizargan dog' ustida bir tomchi qon qotib qolgandi. O'ylanib o'tirmasdan boshini egdi-da, jon-jahdi bilan o'sha dog'li nuqtani so'ra boshladi. So'ngra chetga tuflab tashladi".<sup>6</sup> Ibn Sino yordamga muhtoj inson qarshisida jim turolmaydi, darhol yordamga oshiqadi, bor bilim va tajribasini ishga solidi, bemorni qutqarib qoladi. Asar davomida biz uning bir qancha bemorlarni o'z uyiga olib kelib uzoq muddat davolaganini bilib olamiz.

Adabiyotda har bir asarning vazifasi, albatta, insonga estetik zavq, bilim, ta'lim-tarbiya berishdan iborat. Ushbu romanni ana shunday mukammal asarlar qatoriga bemalol kiritish mumkin. O'zbek adabiyotida biz ushbu kabi shijoatga boy tasvirlarni ko'pincha tarixiy, ya'ni "Yulduzli tunlar", "Ulug'bek xazinasini" kabi asarlarda uchratamiz. Ibn Sino garchi tabib bo'lsa-da, ushbu "Abu Ali ibn Sino" romanida ana shunday ruh bor. O'quvchi asarni o'qish davomida Ibn Sinoning shaxs sifatida, tabib sifatida naqadar bilimli, keng qalbli inson bo'lganini bilib oladi.

"Real hayotdagi voqea-hodisalar san'at tiliga ko'chganda orada farqlanish bo'lishi tabiiy. Yozuvchi tarixchi emas. Demoqchimizki, badiiy talqinda ijodkorning o'z olami, o'z dunyoqarashlari go'zallik qonuniyatlari negizida aks etadi. Shu sabab badiiy talqin bilan hayotdagi voqelik orasiga tenglik alomatini qo'yish o'ta jo'nlik sanaladi. O'quvchi, kitobxon, boringki, tadqiqotchi badiiy matn ichiga kirib, asar qahramonlari bilan bir havodan nafas olib, ularning sarguzashtlariga yo'ldosh bo'lib yurgani holda voqelikni o'z hayotiy tajribasi bilan solishtirishi mumkin. Bu qiyoslar nochor, sodda, qotib qolgan va jo'nlashgan qarashlardan ancha yuksalgan, badiiyati, san'atdagi ilmiy ehrimollar

<sup>6</sup> А. Раҳим. Абу Али ибн Сино. – Тошкент: Камалак, 2019, 86-б.

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

darajasiga ko'tarilgan bo'lishi lozim. Zero, obrazli tafakkur tarsi, badiiylik qonuniyati va ilmiy talqin ta'limoti qaysidir ma'noda shuni talab etadi".<sup>7</sup>

Romanning kulminatsiyasini esa biz Buxoroda tarqalgan o'lat misolida ko'rishimiz mumkin. Ibn Sino ushbu vaziyatda juda faol ishtirok etadi. Bor jon-jahdi bilan aholi salomatligi haqida qayg'uradi. Voqealarda keskinlik, shiddat asar bosh qahramoni bo'lmish yosh hakim Abu Ali ibn Sinoning ruhiy-psixologik holatini yanada yaxshiroq ochib beradi.

Asarda biz tabibning o'z dushmanini davolaganiga ham duch kelamiz. "Abu Ali hushsiz yotgan Abbos tabibning oldiga keldi. Diqqat bilan miyasidagi jarohatni o'rganishga kirishdi. Barmoqlari bilan har-har joyini bosib ko'rdi. Bilak tomiriga barmog'ini qo'yib turdi. Bir fursat avval bu kimsa raqibi edi. Hozir esa qarshisida chekka suyagi majaqlangan, o'lim bilan olishayotgan xastani ko'rdi".<sup>8</sup> Ibn Sino hech ikkilanmay unga ham yordam berdi. Uni jarrohlik yo'li bilan hayotga qaytarishga muvaffaq bo'ladi. Hayotda dushmanga do'stlik qilish hammaning qo'lidan ham kelmaydi. Ammo tabib kasb mas'uliyati qarshisida o'zini, shaxsiyatini unutadi. Unda tanlash imkoniyati bo'lmaydi. Shu sababli bo'lsa kerak, fidoiy shifokorlarni hamma birday yaxshi ko'radi, hurmat qiladi. Xalq ularga ishonadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. А. Раҳим. Абу Али ибн Сино. – Тошкент: Камалак, 2019, 317-б.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
3. Б. Карим. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. – Тошкент: "Академнашр", 2014, 19-20-б.
4. Норматов У. Қалб инқилоби. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986, 227-228-б.

<sup>7</sup> Б. Карим. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. – Тошкент: "Академнашр", 2014, 19-20-б.

<sup>8</sup> А. Раҳим. Абу Али ибн Сино. – Тошкент: Камалак, 2019, 174-б.